

ISLOM MOLİYASINING KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH VA ZAMONAVIY IQTISODIYOTDAGI ROLI

Yuldasheva Umida

*TDIU "Xalqaro moliya" kafedrası DSc., professor
umida_yu@mail.ru*

Negmurodova Mulkiya

*TDIU, Moliya Fakulteti talabasi
mulkiyanr@gmail.com*

Annotatsiya: mazkur maqolada islom moliyasining nazariy asoslari, uning zamonaviy iqtisodiy tizimdagi o'rni hamda jamiyat taraqqiyotiga ta'siri o'rganiladi. Islom moliyasi bu faqatgina moliyaviy tizim emas, balki iqtisodiy adolat, ijtimoiy barqarorlik va halollik tamoyillariga asoslangan muqobil iqtisodiy model sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda ushbu tizimning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda Shariat me'yorlariga asoslangan asosiy tamoyillari, ya'ni ribo (foiz)ning taqiqlanishi, riskni sherikchilik asosida taqsimlash, haqiqiy aktivlarga tayanish va ijtimoiy mas'uliyat kabi tamoyillar keng tahlil qilingan. Bundan tashqari, tadqiqotda islom moliyasi konsepsiyasining zamonaviy global iqtisodiyotdagi roli, barqaror rivojlanishga qo'shayotgan hissasi, hamda moliyaviy inqirozlar sharoitida uning barqarorligi tahlil qilinadi. Islom moliya institutlari va ularning faoliyat tamoyillari, jumladan mushoraka, murobaha, ijara kabi moliyaviy vositalarning iqtisodiyotdagi samaradorligi ham alohida o'rganiladi. Shuningdek, islom moliyasi tizimini zamonaviy iqtisodiy muammolarning yechimi sifatida ko'rib chiqiladi hamda uni ijtimoiy tenglik, iqtisodiy barqarorlik va halol tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi muhim vosita sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, iqtisodiyot, Islom Taraqqiyot Banki, kambag'allik, moliyaviy tizim, islomiy bank.

KIRISH

Islom moliyasi bugungi kunda tez o'sib borayotgan va jadal rivojlanib kelayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Islom moliyasi aslida shariat (islom) qonunlariga asoslangan bo'lib, islom iqtisodini rivojlantirish orqali amalda qo'llashga mos keladigan moliyalashtirish faoliyati hisoblanadi. Aholisining asosiy qismi musulmon bo'lgan davlatlarda bu sohasi rivojlantirishi kundan kunga dolzarb bo'lib bormoqda. Shuningdek, islom moliyasi bir necha davrlardan beri insoniyat oldidagi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri bo'lib kelayotgan kambag'allikka qarshi kurashning eng muqobil modellaridan biri sifatida qaraladi. Chunki, bu tizim o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat moliyaviy

resurslardan foyda olish uchun balki ijtimoiy adolatni qaror toptirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun ham yordam beradi.

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasida ham ancha yillardan beri islom moliya tizimini mamlakatda rivojlantirish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O'zLiDeP fraksiyasi yig'ilishida "Ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilingan. Bunda O'zbekistonda islomiy banklar va islomiy "darcha"lar faoliyatini yo'lga qo'yish, "yashirin" iqtisodiyot ulushini kamaytirish, qolaversa mamlakatga islomiy bank faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qilishi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, 2025-yil 17 va 18 sentabr kunlari Islom moliyasi bo'yicha 20-xalqaro forumga ilk bor Toshkent mezbonlik qilgan. Unda shariatga mos modellarga o'tishning samarali strategiyalari ko'rib chiqilgan. Operatsion muammolarni hal qilishda ilg'or amaliyotlarni qo'llash hamda shariatga muvofiqlikni ta'minlash - ustuvor maqsad sifatida aytilgan. Shuningdek, dual banking doirasida islomiy moliya dinamikasi o'rganilgan. Tizimlar, an'anaviy va islom banklari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qilish, aralash iqtisodiyotlarda iqtisodiy barqarorlik imkoniyatlarini aniqlash masalalari muhokama qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tarafidan "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizom" nomli qaror ham ishlab chiqilgan. Ushbu qarorda islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish, ya'ni nasiya savdoga asoslangan moliyalashtirish (murobaha) xizmatini ko'rsatish, islomiy ijara xizmatini ko'rsatish, ijara obyektni keyinchalik sotib olish sharti asosida (ijara muntahiyya bittamlilik) islomiy ijara xizmatini ko'rsatish, oldindan to'lovga asoslangan moliyalashtirish (salam) xizmatini ko'rsatish, foydani taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish (muzoraba) xizmatini ko'rsatish hamda sherikchilik - foyda va zararlarni taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish (mushoraka) xizmatini ko'rsatish kabi nizomlar ishlab chiqilgan.

Umumiy olganda, qilinayotgan islohotlar va ishlab chiqilayotgan yangi mexanizmlar mamlakat iqtisodiyotida islomiy moliyaviy xizmatlarning huquqiy asosini yaratish, ularni an'anaviy moliya tizimi bilan uyg'unlashtirish va shu orqali iqtisodiy inklyuziyani oshirishga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, moliyaviy resurslarning keng qatlam aholiga yetib borishiga, kambag'allik darajasining pasayishiga hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Islom moliyasi tizimini bosqichma-bosqich shakllantirish orqali aholining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash hamda adolatli iqtisodiy muhit yaratish uchun zarur zamin yaratilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TARIXI

Islom moliyasi va uni bank sohalarida rivojlantirish iqtisodchi olimlar tomonidan turli jihatlardan tahlil qilinadigan dolzarb mavzu va tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Shu bois, bir qator mahalliy va xorijiy olimlarning islom moliyasi mavzusida qilgan tadqiqotlari quyida ko'rib chiqiladi.

Xorijiy iqtisodchi olimlarida biri Mohammad Kabir Hassan o'zining "Islamic Finance and Sustainable Development" asarida shariatga asoslangan moliyaviy tizim nafaqat diniy tamoyillarni, balki ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlikni ham ta'minlashga qaratilganini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, olim zamonaviy iqtisodiyotda kuzatilayotgan beqarorlik, qarzga asoslangan tizim va haddan tashqari spekulyatsiya iqtisodiy inqirozlarning asosiy sabablaridan biri ekanligini aytib o'tgan. Shu bois, Mohammad Kabir Hassan islom moliyasi vositalari, ya'ni mudoraba, mushoraka va ijara kabi hamkorlikka asoslangan mexanizmlar orqali riskni adolatli taqsimlashni, foyda-zarar taqsimotida shaffoflikni ta'minlashni taklif qilgan. Ushbu iqtisodchi olim islom moliyasi ijtimoiy adolatni, ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlashni va foyda-zararni teng taqsimlashni ustuvor qadriyat sifatida ko'radi.

Boshqa bir mashhur iqtisodchi olimlardan biri Mufti Muhammad Taqi Usmani o'zining "An Introduction to Islamic Finance" asarida moliyaviy tizimdagi asosiy beqarorlik sababi sifatida bu foiz (ribo) va qarzga asoslangan iqtisodiyot ekanligini keltirgan. Unga ko'ra, foizli tizim boylikni ishlab chiqarmasdan, balki mavjud boylikni adolatsiz taqsimlaydi. Natijada esa, mamlakatda iqtisodiy inqiroz, ishsizlik va kambag'allikni kuchayishini aytgan. Shuning uchun olim markaziy banklarning shariatga mos mezonlarda ishlashini ilgari surgan va bu esa, o'z navbatida, inflyatsiyani kamaytirish, ishsizlikni pasaytirish va iqtisodiy adolatni ta'minlashga ta'sir qilishini ta'kidlagan.

Saudiya Arabistonidagi Islom Taraqqiyot Banki (IDB) maslahatchisi bo'lgan M. Umer Chapra o'zining "Islam and the Economic Challenge" asarida iqtisodiy barqarorlikning asosiy omili sifatida axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy adolatni ko'rsatadi. Olim zamonaviy kapitalistik tizim inson ehtiyojlarini emas, balki foyda orttirishni afzal ko'rishini aytib o'tgan. Buning natijasi ijtimoiy tengsizlik, korrupsiya va kambag'allikni kuchaytirishga olib kelishini ta'kidlagan. Shu sababli, iqtisodchi inson iqtisodiyot uchun emas, iqtisodiyot inson uchun xizmat qilishi kerak degan g'oyani ilgari surgan. Bundan tashqari, M.Umer Chapra islomiy iqtisod tizimi zakot, sadaqa va vaqf kabi ijtimoiy moliya vositalari orqali daromadlarni qayta taqsimlashni ta'minlashi va bu esa ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirishi hamda **barqaror o'sishni ijtimoiy adolat bilan uyg'unlashtirishini ta'kidlagan.**


O'zbekistondagi iqtisodch olmlaridan esa Baydaulet E.A islom moliysini shakllantirish, boshqarish va uning muhimligi haqidagi ilmiy g'oyalar keltirib o'tgan. Shuningdek, iqtisodchi olim islom moliyasidagi xorijiy tajribalarni o'rganib chiqib, o'zining "Islom moliyasi asoslari" nomli kitobida jamlagan.

Yuqoridagi adabiyotlardan ham ko'rishimiz mumkinki, iqtisodchi olimlar mamlakatlarda islomiy moliya tizimini joriy etishning huquqiy asoslari va iqtisodiy imkoniyatlari kabi masalalarga qaratmoqda. Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, amaliy jihatdan bu sohani rivojlantirish uchun moliyaviy infratuzilma shakllantirish va islomiy moliyaviy institutlar faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunchilik bazasini yaratish lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqotda ilmiy tahlilning nazariy va empirik usullari qo'llanildi. Xususan, mavzuni chuqur o'rganish jarayonida tahlil va sintez, induksiya, deduksiya, umumlashtirish, taqqoslash, guruhlash kabi metodlardan keng foydalanildi. Shuningdek, mavjud ma'lumotlar va amaliy natijalarni tahlil qilishda statistik tahlil usuli qo'llanilib, islom moliyasi sohasidagi tendensiyalar, rivojlanish darajasi hamda ularning O'zbekiston iqtisodiy tizimiga ta'siri aniqlab berildi. Tahlil va natijalar.

Islom moliyasi — bu zamonaviy dunyoda jadal rivojlanib borayotgan tushuncha bo'lib, u axloqiy va diniy tamoyillarga asoslangan bank va moliyaviy faoliyat jarayonidir. Islom moliyasi yoki bank tizimi, boshqa so'z bilan aytganda, foizsiz bank tizimi deb ataladi. Islomiy moliyaviy institutlar — bu o'z faoliyatini shariat tamoyillari asosida olib boruvchi moliyaviy tashkilotlardir. Moliyaviy institutlar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy va me'yoriy baza ularning ish jarayonini boshqaradi hamda belgilangan maqsadlarga erishishda muhim rol o'ynaydi.



1-rasm. Global islom moliyasi bozorlari bo'yicha prognoz qilingan umumiy aktivlar qiymati.

Yuqoridagi rasmdan ko'rinadiki, islom moliyasi doimiy ravishda oshib borayotgan va juda tez sur'atlarda rivojlanayotgan tizim hisoblanadi. Hozirda dunyoda 200 dan ortiq islomiy moliyaviy institutlar faoliyat yuritmoqda va ularning umumiy aktivlari 3,9 trillion AQSh dollaridan oshgan, bu esa har yili 10-15 foiz o'sishni tashkil etadi. 2015 yildan 2021 yilgacha islom moliyasi bozori barqaror o'sishni namoyish etgan. Prognozlarga ko'ra, 2026 yilga kelib global islom moliyasi bozorining umumiy aktivlari 5,9 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda.

Uzbekistan	IsDB	ICD
Joining date:	27.08.2003	14.09.2004
Capital subscription (million):	ID 13.44	USD 0.24
Capital subscription (percent):	0,03	0,01
Total projects and financing:	116 projects (USD 2 602,8 m)	
Completed:	55 projects (USD 1 077,7 m)	
On-going:	61 projects (USD 1 525,1 m)	
New commitments:	USD 427,2 m	
Business insured:	USD 381,5 m	
Agriculture	9 projects	USD 702,4 million
Education	11 projects	USD 78,4 million
Energy	5 projects	USD 203,1 million
Finance	54 projects	USD 653,5 million
Health	15 projects	USD 413,2 million
Industry	9 projects	USD 59,9 million
IT	1 projects	USD 0,1 million
Real estate	0 projects	USD 0,0 million
Transport	4 projects	USD 348,1 million
Water, sanitation and urban services	3 projects	USD 93,1 million
Others	5 projects	USD 51.0 million

1-jadval. 2022-yilga qadar O'zbekistonning Islom Taraqqiyot Banki (IsDB) va Islom Xususiy Sektorni Rivojlantirish Korporatsiyasi (ICD) bilan hamkorligi.

Mazkur jadvaldan aniqki, O'zbekiston 2003-yil avgust oyidan boshlab Islom Taraqqiyot Banki (IsDB) hamda 2004-yil sentabr oyidan Islom Xususiy Sektorni Rivojlantirish Korporatsiyasi (ICD) a'zosi hisoblanadi. IsDB va ICD tomonidan O'zbekistonda 116 ta loyiha uchun jami 2 602,8 million AQSh dollari miqdorida moliyalashtirish ajratilgan. Shulardan 55 ta loyiha muvaffaqiyatli yakunlangan bo'lib, moliyalashtirish hajmi 1 077,7 million AQSh dollarini, qolgan 61 ta loyiha esa amalga oshirilayotgan bo'lib, ularning qiymati 1 525,1 million AQSh dollarini tashkil etadi. Eng ko'p mablag' ajratilgan sohalar – qishloq xo'jaligi (702,4 mln AQSh dollari), moliya (653,5 mln AQSh dollari) va sog'liqni saqlash (413,2 mln AQSh dollari) sohalaridir. Shu bilan birga, ta'lim, energetika, transport, suv ta'minoti, sanitariya va shahar infratuzilmasi yo'nalishlari ham IsDB va ICD tomonidan sezilarli darajada moliyaviy qo'llab-quvvatlangan. 2020-yilda uchta yirik investitsiya loyihasi amalga oshirish uchun 682 million AQSh dollari miqdorida mablag' ajratilishi belgilangan bo'lib, shundan 623 million AQSh dollari

kredit mablag'larini tashkil etadi. 2021-yilda esa beshta investitsiya loyihasi rejalashtirilgan:

- A-380 "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beynov" avtomobil yo'lini 581-698 km oralig'ida rekonstruksiya qilish – 257,0 mln AQSh dollari; Buxoro viloyati Kogon tumanida ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash – 71,9 mln AQSh dollari;

- O'zbekiston Respublikasida perinatal xizmatni yaxshilash – 40,0 mln AQSh dollari;

- Tibbiyot muassasalarini kislorod ta'minoti uchun zamonaviy uskunalar bilan jihozlash – 15,0 mln AQSh dollari;

- Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlaridagi qishloqlarda suv ta'minoti, yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash ("Farovon qishloq" dasturi doirasida) – 200,0 mln AQSh dollari.

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi global sharoitda ham rivojlanayotgan tizim bo'lib, doim barqaro ko'rsatkichlar bergan. Shuningdek, O'zbekistonda ham islom moliyasiga asoslanga tashkilotlar bilan ishlash jarayonida bir qancha istiqbolli islohotlar qilingan.

XULOSA

Islom taraqqiyot banki O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining muhim strategik hamkorlaridan biridir. 2003 yildan buyon IsTB tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini yaxshilash, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va aholi farovonligini oshirishga bevosita hissa qo'shib kelmoqda. Eng katta ta'sir ko'rsatgan yo'nalishlardan biri – qishloq xo'jaligi va suv ta'minoti tizimlarini modernizatsiya qilishdir. Bunday loyihalar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi, balki qishloq joylarda bandlikni kuchaytirib, barqaror iqtisodiy o'sishga turtki berdi. Shuningdek, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalariga yo'naltirilgan mablag'lar mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishda muhim o'rin tutdi. IsTBning "islomiy moliya tamoyillari" asosida ishlashi, ya'ni foizsiz, sheriklik va riskni taqsimlash tizimiga asoslangan moliyalashtirish, O'zbekiston uchun muqobil va barqaror investitsiya modelini taqdim etmoqda. Bu tizim nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy adolat va inklyuziv o'sishni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Kelajakda bankning ishtirokida yashil energetika, raqamli infratuzilma, ta'lim innovatsiyalari va barqaror shaharlar rivoji yo'nalishida yangi qo'shma loyihalarni amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Shunday qilib, Islom taraqqiyot bankining faoliyati O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy rivojlanish va global islom moliya tizimiga integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida ko'riladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 19-iyuldagi 23/4-son qarori
2. <https://uz.wikipedia.org>
3. <https://www.lseg.com/en/insights/data-analytics>
4. <https://www.uzdaily.uz>
5. Исломий молия асослари, 429 бет, Байдаулет Е.А, 2019.
6. <https://kun.uz>